TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O‘LJAS SULAYMONOV



78

821.512.122
Ў-69

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

O‘LJAS SULAYMONOV

78

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 42 232

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)
O‘ 69

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova,
Umid Hayitov, Tursinali Ahmedov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Ulug‘bek Hamdam

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8734-5-2
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

O‘LJAS SULAYMONOV IJODI HAQIDA

Mashhur qozoq shoiri, ayni damda, yozuvchi, diplomat, badiiy va ilmiy faoliyati Qozog‘iston mehnat qahramoni, Qozog‘iston xalq shoiri kabi yuksak unvonlar bilan taqdirlangan O‘ljas Umarovich Sulaymonov 1936-yil 18-mayda Qozog‘istonning avvalgi boshkenti bo‘lmish Alma-Ata shahrida harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Shuningdek, u jamoat faoli hisoblanib, “Nevada-Semipalatinsk” deb nomlangan antiyadroviy harakatga asos solgan. O‘ljas Sulaymonov zabardast lirik shoir bo‘lish bilan birga, tilshunos, arxivshunos, tarixshunos va adabiyotshunos tadqiqotchi sifatida tarixda o‘zidan yorqin iz qoldirgan — qoldirayotgan olimdir: bu uning yozilganidan beri dunyo olimlari orasida bahs-u munozarasi sira to‘xtamagan “Az i Ya” asari bilan bog‘liq.

O‘ljas Sulaymonov 1954-yilda maktabni tamomlab, Qozoq universitetining “Geologiya-qidiriv” fakultetiga o‘qishga kiradi. Uni 1959-yilda yakunlab, muhandis-geolog mutaxassisligiga ega bo‘ladi. Ya’ni shoirning birlamchi kasbi ijod-u adabiyotdan, ayniqsa, tilshunoslikdan butunlay yiroq soha bo‘lib, taqdir uning yo‘lini 1955-yildagina adabiyot tomon buradi. 1959–1961-yillarda Moskvadagi Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutida tahsil oladi. Biroq ayrim sabablarga ko‘ra, shoir o‘qishni yakunlamasdan Qozog‘istonga qaytishga majbur bo‘ladi hamda o‘z yurtida turli sohalarda mehnat qiladi.

O‘. Sulaymonov 1962–1971-yillar orasida “Qozoqfilm” studiyasida bosh muharrir, so‘ngra “Prostor” jurnalida bo‘lim mudiri, 1972-yildan esa Qozog‘iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimlarida ishlagan. 1995-yildan mustaqil Qozog‘istonning Italiyadagi elchisi sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, shoir ko‘plab rasmiy va jamoatchilik vazifalarida ishlaydi.

Yosh O‘ljasning ilk to‘plami — “Arg‘umoqlar” 1961-yilda nashr etiladi. Sekin-asta esa shoirning “Quyoshli tunlar” (1962), “Ajoyib tob”, “Olovning ko‘chishi”, “Yumaloq yulduz”, “Qutlug‘ tongotar” (1964), “Maymun yili” (1967), “Sopol kitob” (1969) she’riy kitoblari, “Oqdaryo ustida” (1970), “Butun baxt” (1975), “Az i Ya” (1975) kabi o‘nlab she’riy, nasriy, ilmiy kitoblari o‘quvchilar qo‘liga yetib boradi.

Uning shoir sifatida dastlabki eng katta muvaffaqiyati insoniyat tarixida kosmosga ilk parvoz qilgan Yu. Gagaringa bag‘ishlangan she’ri bilan bog‘liq edi. Bu vaqtda Moskvadan kelib “Qozoq haqiqati” gazetasida ishlayotgan shoirga gazeta muharriri mavzu bo‘yicha she’r yozishni topshiradi. Yozilgan she’r juda tezlik bilan mashhurlikka erishib, samolyotdan avval Alma-Ata shahriga, keyin Qozog‘istonning boshqa shaharlariga sochib tarqatiladi. Ko‘p o‘tmay esa, mazkur she’r asosida “Insonga ta’zim qil, Zamin!” (doston nomini “Qoyilmisan insonga, zamin!” deya o‘giruvchilar ham bor) degan doston paydo bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, shoir o‘z davrining farzandi sifatida unda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga doimo hozirjavob bo‘lib yashagan. Bunday hozirjavoblik 60-yillar shoirlarining aksariyati ijodiga xos bo‘lib, ayni vaqtda va biroz keyinroq o‘zbek she’riyatida E. Vohidov, A. Oripov, O. Matjon kabi zabardast shoirlar xuddi shunday vazifani ado etganlar. Ya’ni bu avlod shoirlari o‘z davri muammolarining samimiy va yorqin tarjimonlaridir.

Mutaxassislar 60-yillar avlodiga mansub shoirlarning yaxshi she’r yozish bilan cheklanmay, yozganini qoyilmaqom qilib o‘qishi talab qilinganini ham eslashadi. Ya’ni davr shunday bir davr ediki, xonanishinlik chetga surilib, she’riyat ko‘pning dardini kuylashga bel bog‘lagandi. O‘ljas Sulaymonov ham ana shunday shoirlar sirasidan bo‘lib, ko‘pning, elning, millatning, kerak bo‘lsa, insoniyatning dardini tarix vositasida kuylash yo‘lini tanladi. Shunday qilib, u tarixni kuyladi. Tarix esa, turkiy millatning shonli davrlarini uning ko‘z o‘ngida sep kabi yoydi. Natijada O‘. Sulaymonov tarixchi shoir bo‘lib tanildi: turkiylar tarixini, qipchoqlar hayoti va ko‘nglini she’riyatga ko‘chirdi va bu ishni umrining, ijodining bosh a’moli darajasiga ko‘tardi.

O‘. Sulaymonov ikki — qozoq va rus madaniyati negizida shakllangan shoir. Har ikki madaniyatning eng kuchli tarafini o‘ziga singdirgan. U qozoq — qipchoq, umuman, turkiylar tarixini rus tili orqali tarannum etdi.

Ayni vaqtda, 60-yillar avlodi ona zaminning, uning buguni-yu ertasi qayg‘usini o‘z qayg‘usi bilib qalam tebratdi. Go‘yo qalam vositasida dunyoni, kurrayi zaminning dardini so‘rib oladigandek edi ular:

Zamin, aylanayin, o‘rgulay, zamin,
Jon-u dilim bilan senga boylandim.
Dardingni olayin, qurbon bo‘layin,
So‘ngsiz yo‘llaringda tinmay aylangum, —

deydi shoir bir she’rida. Ha, bu avlod vakillari hayot deb atalgan keng-mo‘l maydonga tushib, hamma narsadan ma’no qidirgan va topgan, shundan kelib chiqib ularga munosabatda bo‘lgan shoirlar edi. Bas, shunday ekan, ular zamin atrofida girgitton bo‘ldilar: uning gullagan bo‘stonidan sevinib, qon silqigan yarasiga malham bosishga urinib ijod qildilar.

O‘. Sulaymon lirikasining ichiga sho‘ng‘ib borar ekansiz, uning shakl-u shamoyilidan tortib, mazmun-ma’nosigacha dasht odamlarining ozod ruhini his qilasiz. Mavzu, obraz, detallar ham qaynoq hayot bag‘ridan olingan: ovchi, bo‘ri, cho‘l, qasos, o‘t, maysa, yigit, qiz, ot, qipchoq, dala, qozoq...

O‘h, qozoq, sho‘rlik,
Qozoq manglayiga qismat yozilgan —
Qayoqqa yuz bursa, faqat cho‘l, cho‘ldir...

Lekin shoir o‘zi mansub bo‘lgan sahroyi xalqi hayotidagi yaxshiliklarni ham topadi, topib alqaydi, suyadi, ayni paytda, bu bilan kifoyalanmay, topganlarini eng baland pardalarda — bo‘g‘zini yirtarchasiga kuylaydi. “Ajab, u yerlar giyoh bitmaydigan cho‘l-u biyobon bo‘lsa, nega buncha hayajon?” degan tabiiy savol tug‘iladi. Javob shoirda bor. Javob — Vatan!..

Nebraskaga borar edim-u,
Sog'inibman Vatanni, ukam,
Unda ham shu manzara va shu...
Vatanimga qaytaman, ukam.
Unda Aday dashti bor, azal
Yantoq o'sar, chimchir sovuq ham,
Ot bor, chang bor! Juda ham go'zal!
Vatanimga qaytaman, ukam...

Sarsor solsak, xuddi mana shunday analogiya o'zbek she'riyatida ham "manaman" deb ko'zga tashlanib turibdi. A. Oripovning talay she'rlarini, xususan, mashhur "Qarshi qo'shig'i" nomli otasiga bag'ishlangan kattagina bitigini o'qir ekanmiz, yuqorida qayd etilganga yaqinlikni, hamohanglikni, uyg'unlikni ko'ramiz, his qilamiz:

Mana bu kun, ey yurtim, g'oz turibman qoshingda,
Ot aylanib joyini topar, deganlar doim.
Sen haqingda she'r bitish sharafi bor boshimda,
Ey sen, sahroyi xalqim, ey sen, tug'ilgan joyim.

Ot aylanib topgan joyi — cho'l, dasht-u biyobon bo'lsa ham, bu joy sahroyi xalqi yashayotgan joydir hamda bu joyning oti — Vatan!

Bu yerlarning bori shu: qip-qizil sahro bari,
Faqat sarob jimirlab chorlar sirli bazmga.
Uncha ham suluv emas sahroning jonzotlari,
Nasrga yarashmasa, yarashmaydi nazmga.

Ammo borlig'i qip-qizil sahrodan iborat yerning tabiat in'omi bo'lmish fasli bor — bahor:

Lekin uning bahori, o sen, cho'llar bahori,
Sog'intirgan onamning diydori senday shirin...

Aynan mana shunday joylarning go'zalliklari yanada chiroyli, yanada xush bo'ladi, odatda. Buni har ikki shoir juda aniq va

tiniq ko‘radi. Chunki ular borliqdagi kontrastlar zimnidagi go‘zalliklarning oshuftasi. Axir, kechagina atrof-javonib cho‘l edi, giyoh bitmaydigan dasht-u biyobon edi, bugun birdan jilmayib, chechak ochib, ko‘klamoy kirib keldi. Bunday yurtning ko‘klami onaning diydoridek shirin bo‘lmasdan yana nima bo‘lsin?! Har ikki — qozoq shoiri ham, o‘zbek shoiri ham o‘z elining chekiga tushgan giyoh bitmaydigan cho‘l-u biyobonlardan so‘z ochmoqda: biroq qaqragan tabiati uchun uni yomonotliq qilmayapti, balki go‘zalliklarini topib alqayapti, sevyapti, ko‘klarga ko‘tarib madh etyapti. Chunki unisi — Vatan, bunisi esa shu Vatanning bir parchasi — farzanddir, farzand!..

60-yillar avlodiga ergashib, ularning she’riyatdagi hayotbaxsh an’analarini davom ettirib, o‘zlari ham adabiyot tarixida “70-yillar avlodi” degan nomni yaratib kirib kelganlardan biri — O‘zbekiston Xalq shoiri Xurshid Davron “O‘ljas Sulaymonov haqida muxtasar so‘z” nomli maqolasida “70–80-yillarda yosh o‘zbek ijodkorlarining intilishlari timsollaridan biri taniqli qozoq shoiri O‘ljas Sulaymonov edi”, deb yozadiki, bu haqqi rost edi. Chindan ham 60-yillar avlodi vakillaridan A. Voznesenskiy, Ye. Yevtushenko, V. Visotskiy, Q. Quliyev, R. Hamzatov, O‘. Sulaymonov kabi shoirlar parchalanib ketgan Sho‘ro hukmronligi davrida mamlakatga bir yutim toza havo olib kirgan ulkan ijodkorlar edilar. 1986-yilda AQSHda chop etilgan jurnallardan biri “Az i Ya” ni A. Soljenitsinning “GULAG Arxipelagi”dan keyin mamlakatda yangilanish nafasini olib kelgan ikkinchi asar, deb bejiz e’lon qilmagan edi.

“Az i Ya” asari ikki qismdan iborat bo‘lib, ilk bobi ruslarning “Igor jangnomasi”[1] dostoni leksik boyligining tarkibi ustida amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotdir. Bu yerda tadqiqotchi asar so‘zlarining katta bir qismi (30 foizgacha) turkiy so‘zlardan tashkil topganini aniqlagan, ilgari surayotgan g‘oyasiga isbot-u dalillar keltirgan. Albatta, katta bir xalqning eposida ishtirok etgan leksika talay qismining o‘zga tilga tegishli bo‘lib chiqishi epos egasi bo‘lmish millat olimlarini o‘ylantirib qo‘yadi. Shuning uchun

[1] **To‘liq nomi** — “Igor qo‘shini haqida jangnoma”dir.

ham asar bitilgandan, ya'ni 1975-yildan to shu kungacha "Az i Ya" ustidagi bahs-u munozaralar tingan emas. O'z vatqida SSSR Fanlar akademiyasining Til va adabiyot bo'limida muhokama qilinib, kimdir Sulaymonovning til tarixini bilmaslikda ayblasa, kimdir tilshunoslik tarixi bo'yicha diletant, ya'ni havaskor darajasida ish tutganini iddao qiladi (masalan, akademiklar D.S. Lixachev, L.A. Dmitriyev, O.V. Tvorogov), boshqa birovlar esa turkiy xalqlar o'tmishini haddan tashqari ideallashtirishda ayblaydi va h.k. O'. Sulaymonovning o'zi bo'lsa, asar yozilgan vaqtda jamiyatda bilingvizm hukm surganini, bas, asar vujudga kelishda har ikki tildan baravar foydalanganligi o'z davri uchun g'oyat tabiiy bo'lganligini, ikki tilli (zullisonayn) avtor ikkitilli o'quvchiga xitob qilib yozganini ta'kidlaydi. Bundan uning rus xalqini yerga urib, turkiylarni ko'tarish da'vosi yo'qligi anglashiladi. Shunga qaramay, O'. Sulaymonov tanqidiy qarashlarni hisobga olib "Az i Ya"ni qayta ishlaydi, ayrim tuzatishlar kiritadi, lekin asosan o'z qarashlarida qat'iy qoladi. U aytadiki: "Sovet tarix fanida qipchoq (polovets) va tatar-mo'g'ul istilosi davrida rus tiliga "arqon" va "qimiz"ga o'xshash bir necha turkiy so'zlar kirib kelgan, xolos, deyiladi. Men hamisha ruscha deb qaralgan ko'rinmas TURKIZMlar haqida yozdimki, xuddi shu narsa akademiklarni junbishga keltirib yubordi. Qanchalik g'alati bo'lib tuyulmasin, men "Igor jangnomasi"ning qaldirg'och bilingvistik o'quvchisi bo'ldim". "Ko'rinmas turkizm" deganda O'. Sulaymonov asli turkiycha bo'lib, keyinchalik transformatsiyaga uchrab, ko'rinishidan tamomila ruschaga aylangan so'zlarni nazarda tutganini e'tiborga olsak, olimning nima demoqchi bo'lgani yaqqol anglashiladi.

Mana, masalan, "buytur" so'zini olaylik. Olim yozadi: "Vsevolod taxallusi — "buytur"ni mustansix sezmagan turkizmlar sirasiga kiritaman. Yilnomalarda bu knyazning harbiy iste'dodi va mardliklari alohida qiziqish bilan yoritiladi. "Igor dostoni"ning ko'p joyida uning jangovar qahramonliklari vasf etiladi. Muallif Vsevolodni "buytur" deb atashi behuda emasga o'xshaydi. "Botir" so'zining kelib chiqishini tushunishni istovchi turkshunoslar uchun bu topilma (batur, bootur, bogatur, bogatir). "Igor jangnoma"si ("Igor dostoni") XIII asrdan so'ng keng yoyilgan bu ata-

maning eski shaklini saqlagan yagona obidadir. X asr manbalarida hali yo‘q edi... To‘g‘irog‘i, XI–XII asr qipchoq muhitida paydo bo‘ldi (buy-ture, bo‘y to‘ra; aslida boyto‘ra, yoki bekto‘ra, beyto‘ra, biyto‘ra — tarj.) ham bo‘lishi mumkin, lekin “bo‘y-to‘ra” to‘g‘riroq, so‘zma-so‘z tarjimasi: bo‘ychan janob, yuksak, baland, novcha janob). Volga turklari til xususiyatlarini o‘zida saqlagan.

... Игорь ждетъ мила брата Всеволода.
И рече ему буйтуръ Всеволодъ...”[1]

Asarning ikkinchi qismi “Shumernoma” deb ataladi. Bu yerda tadqiqotchi shumerlarga tegishli mixxatlardagi 60 ta turkizm (turkiy so‘zlar)ni keltiradi. “I.M. Dyakonov misol sifatida yuzdan sal oshiq shumercha so‘zdan foydalandi. Men 60 tasini to‘pladim. Garchi 50 yoki 80 so‘z topishim mumkin esa-da, nechun 60 raqamida to‘xtadim? Chunki Shumer(cha)da bu raqam oliy hisob o‘lchovidir. 60 — eng so‘nggi — eng yuksak son hisoblanardi — 60x60, 60x60x60 va h.k. 60 lik hisob an’anasi shundan beri kelmoqda: daqiqa — 60 soniya, soat — 60 daqiqa, doira-aylana — 360° va h.k... Shu ramzni tutamiz, balki yordami tegib qolar. To‘liq lug‘at tuzishganda yoki tadqiq etishganda ilk 60 so‘z(orti)dan, mayli, 60 va 360 barobar ko‘prog‘ini boshqalar topishsin. Lekin mening qanoatim shu — totini bilish uchun butun Tinch ummonini ho‘plab yuborish, hammasini ichib qo‘yish shart emas, sho‘rini shamol yuzingga purkagan bir necha sho‘r tomchi ham kifoyadir”, deb yozadi O‘. Sulaymonov “AZ i Ya” asarida.

Lekin keyinroq O‘. Sulaymonovning ozarbayjonlik safdoshi va izdoshi Oydin Mamedov turkizmlar sonini 800 taga yetkazib aniqladi. Hozirda bunday turkizmlarning soni 1000 taga yaqinlashdi. O‘. Sulaymonovning o‘zi ham haligacha mazkur ish ustidagi izlanishlarini to‘xtatgan emas. Bu haqda u turli davralarda ko‘p bora so‘zlagan[2].

Aytish lozimki, “Az i Ya” nashr qilingandan keyin ko‘p o‘tmay taqiqqa uchradi va uning barcha nusxalari kitob do‘konlaridan

[1] Yo‘ldosh Eshbek tarjimasidan.

[2] *Qarang:* “Az i Ya” ga bag‘ishlangan internet materiallari.

yig‘ishtirib olindi. Bu hol muallifning o‘ziga ham qattiq ta’sir qilib, u sakkiz yil davomida deyarli she’r yozmadi.

“Nima uchun kitob bunday noodatiy nomlanishga ega?”, degan savol tug‘iladi. Buning sababini muallif shunday izohlaydi: “Qadimgi rus va qadimgi slavyan lahjalarini o‘rganar ekanman, “Aziya” so‘zida bir vaqtning o‘zida bir olmoshning ikki shaklini ilg‘ab qoldim: ko‘hna “Men” va zamonaviy “Men”. Demak, O‘. Sulaymonov aytmoqchiki, bu yerda ikki “men” bor, biri ko‘hna, ikkinchisi esa yangi, hozirgi “men”. Asarni o‘zbek tiliga juda katta mehnat va matonat bilan tarjima qilgan iste’dodli shoir va mutarjim Yo‘ldosh Eshbek yozadi: “Az i Ya — qadimgi rus alifbosining birinchi va oxirgi harflari, ya’ni boshlang‘ichdan oxiriga qadar ma’nosida; eski tilda — sen va men; shuningdek, Osiyo kabi ma’nolari ham bor”.

Bir qarashda chiroyli so‘z o‘yinidek tuyuladigan nom ostida ulkan tadqiqot ma’nosiga ishora qiluvchi mazmun yashirin: “boshdan oxirni qamrab olish”. Qolaversa, ruslar “Osiyo”ni “Aziya” deyishadi. Bas, shunday ekan, bu yerda turkiylar makon tutgan joy nomi ham anglashilib turadi, deyish mumkin.

Yana shoirning lirikasiga qaytamiz. Qozoq shoirining rus tilida bitilgan she’rlari o‘zbek tilida ham go‘zal shakllarda jaranglagan, ularga tartib berilib, to‘plamlar chop etilgan. O‘.Sulaymonov she’rlarini o‘zbek tiliga R.Parfi, U.Azim, Sh.Rahmon, S.Rahmon, M.Rahmon, A.Suyun, F.Kamolova, M.Mirzo, M.Kenjabek, S.Sayyid kabi shoirlar mahorat bilan o‘girganlar. Aytish kerakki, O‘ljas Sulaymonov eskirgan emas, uning asarlari tarjimalari hali-hanuz davom etmoqda. Chunonchi, ikki taniqli shoir va tarjimon Yo‘ldosh Eshbek hamda Oydinniso amalga oshirgan tarjimalar so‘zimizning yaqqol isbotidir. Y. Eshbekning, kamchiliklaridan qat’i nazar, ulkan tadqiqot ustiga qurilgan “Az i Ya”ni tarjima qilib, elimizga tutgani bu — o‘zbek tarjimashunosligida alohida voqea. Bunga hali ko‘p va xo‘p qaytiladi. Shoira Oydinniso taqdim etgan yangi tarjimalar shuni ko‘rsatadiki, vaqtlar o‘tgani sayin u yoki bu durdona asarlarning yangi tarjimalariga ehtiyoj hamisha saqlanib qolaverar ekan. Umuman, bir vaqtning o‘zida ikki tarjimon amalga oshirgan tarjimalar turlicha chiqishi g‘oyat tabiiy

ekanligini qabul qilishimiz kerak. Chunki har bir tarjimon asliy matnning o‘ziga qarab turgan tomonini ko‘radi, tushunadi, his qiladi va o‘giradi. Shuning uchun ham qo‘lingizdagi kitobda, oz bo‘lsa-da, bir she’rning ikki xil — bir-biridan anchayin farqlanib turuvchi o‘girmasiga ham duch kelishingiz mumkinki, buni takror deb o‘ylamasliklarini o‘quvchilardan so‘rab qolamiz.

Shuningdek, qozoq shoirining she’rlari dunyoning ko‘plab boshqa, jumladan, ingliz, ispan, fransuz, olmon, venger, chex, polyak, slavyan, turk, mo‘g‘il, tojik, qirg‘iz kabi ellikdan ortiq tillariga tarjima qilingan. Ayniqsa, shoirni Fransiyada juda yaxshi bilishadi, she’rlarini sevib o‘qishadi. O‘. Sulaymonovning turli davrlar mahsuli bo‘lgan “Maymun yili”, “Sopol kitob” kabi to‘plamlari Fransiyada nashr qilingan va nozikta’b she’rxonlar tomonidan juda iliq kutib olingan.

O‘ljas Sulaymonovning she’rlari va uning hayotiy faoliyatida o‘ziga xos mushtaraklik bor. Chunonchi, shoir “Nevada — Semipalatinsk” antiyadroviy harakatiga asos solish bilan birga, bu haqda lirika orqali dunyoga hayqiradi. 1973-yilda o‘z davri uchun nihoyatda o‘tkir va qaltis mavzuda bitilgan “Yovvoyi dala” she’ri shunday misra bilan yakunlanadi: “Yashasin sinovlarga qo‘yilgan nuqta!” Shoir qanday sinovlarga qo‘yilgan nuqta haqida so‘zlamoqda? Nahotki, Boykonurdagi yadroviy bombalar sinoviga?.. Sobiq sho‘rolar davlati ayni kuch-u quvvatga to‘lgan bir davrda-ya?.. Ha-ha, aynan o‘sha davrda hamda she’rda so‘z yadroviy sinovlarni to‘xtatish ustida ketmoqda. She’r shu maqsadda yozilgan. Hozirgi davrda bunday mazmunli bitiklar bitish anchayin oson, ijodkordan alohida jasorat talab qilmaydi. Lekin bunday harakatga asos solish hamda bunday mavzularda baralla yozish o‘tgan asrning 70-yillari uchun shoirdan juda katta mardlik, qahramonlik talab qilardi. Xo‘sh, shoir nega bu ishga qo‘l urdi? Chunki faqat 1949 va 1963-yillarda o‘tkazilgan atom va vodorod bombalari sinovining kuchi Yaponiyaning Xirosima shahriga tashlangan AQSH atom bombasidan 2500 marta quvvatliroq edi. Bunday holda qozoq tuproqlariga juda katta ekologik zarar yetkazilayotgan edi. Ekozarardan tashqari, qirg‘in keltiruvchi bombalar sinovidan insoniyatga xayr yo‘q, bil’aks, faqat va faqat xavf bor, xatar bor

Hind-Yevropa tilshunosligi 395
O‘tov va luvr 404
Jadval 411
Oltmish so‘z 415
Qisqa xulosalar 426
Fonetika 426
Morfologiya 430
Bo‘g‘in (hijo)ni qayta qurish qonuni 433
Bir bo‘g‘inli so‘zlar 433
Ikki bo‘g‘inli so‘zlar 434
Jadvalga ilova 436
Rebus 440
Sarlavha izohi 447
O‘z odamlarimiz va ko‘ppaklar 448
Sobaka 450
Ispaka 454
Ishguzlar 455
Xudojo‘ylik 457
Kosa 460
Maqbara yulduzlari 465
Iqtiboslar 469
Shabnam va irq 474
Quyoshdagi dog‘ 475
Dumli quyosh 477
Tarix va qadimgilik 483
Tarjimon so‘zi 488

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

O‘LJAS SULAYMONOV

78-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulchehra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 31,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 27,73.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 144-1/22. Buyurtma raqami № 22-361

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

O‘ 69 O‘ljas Sulaymonov [Matn]: nazm / to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Ulug‘bek Hamdam. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 496 b.
ISBN 978-9943-8734-5-2

UO‘K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)